



4-SINF “O’QISH SAVODXONLIGI” DARSLIGIDA BERILGAN X.TO’XTABOYEVNING “TELEBOLA” HIKOYASI TAHLILI

To‘raxojayeva Adibaxon Xalilullayevna

Qo‘qon davlat universiteti, boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti

Sobirova Nozimaxon Zohidjon qizi –

QDU 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek bolalar adabiyoti rivojiga munosib hissa qo‘shgan Xudoyberdi To‘xtaboyevning hayoti va ijodi, uning 4-sinf o‘qish savodxonligi darsligida keltirilgan “Telebola” hikoyasi tahlil qilingan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ushbu hikoyani qanday qilib o‘qitish usullari qisqacha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Xudoyberdi To‘xtaboyev, televizor, qo‘shni, usta, echki, ona, ota, savollar, izohli lug‘at, badiiy asar, matn, topshiriq, innovatsion metodlar.

Abstract. This article analyzes the life and work of Khudoyberdi Tokhtaboyev, who made a worthy contribution to the development of Uzbek children's literature, and his story "Telebola" given in the 4th grade reading literacy textbook. Methods for teaching this story to primary school students are briefly described.

Keywords: Khudoyberdi Tokhtaboyev, television, neighbor, master, goat, mother, father, questions, explanatory dictionary, work of art, text, task, innovative methods.

Muallif haqida:

Xudoyberdi To‘xtaboyev (1932-yil 17-dekabr, O‘zbekiston tumani – 2021-yil 21-mart) — O‘zbekiston xalq yozuvchisi (1991). O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi (1982). Dastlab jurnalist sifatida tanilgan, felyetonlar yozgan. Badiiy ijod bilan XX asr 50-yillarida shug‘ullana boshlagan. Ilk hikoyalar to‘plami — „Shoshqaloq“ (1961). „Felyetondan keyin“ (1962), „Sir ochildi“ (1963), „Sehrlı qalpoqcha“ (1964) singari qissalari, „Muhabbat qo‘shig‘i“ (1967), „Jonginam, shartingni ayt“ (1969), „Konizar yulduzlari“ (1978), „Omonboy bilan Davronboy sarguzashti“ (1974) va boshqa asarlar muallifi. „Sariq devni minib“ romani (1968) yozuvchiga katta shuhrat keltirgan. Shundan keyin „Sariq devning o‘limi“ (1973), „Besh bolali yigitcha“ (1976), „Qasoskorning oltin boshi“ (1981), „Yillar va yo‘llar“ (1983), „Shirin qovunlar mamlakati“ (1986), „Mungli ko‘zlar“ (1988), „Jannati odamlar“ (1996) romanlari nashr etildi. Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlari yumorga boyligi, bolalar hayoti, ularning o‘ziga xos tabiati, xususiyatlari, ruhiy kechinmalari nihoyatda jonli, qiziqarli va bolalarbop yo‘sinda mahorat bilan tasvirlanishi jihatidan ajralib turadi. Xudoyberdi To‘xtaboyev o‘zbek bolalar adabiyotini jahon miqyosiga olib chiqqan ijodkorlardan biridir. Asarlari rus, ingliz, fransuz, nemis tillariga tarjima qilinib, 28ta mamlakatida nashr etilgan. Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati (1989).¹

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Xudoyberdi_To%CA%BBxtaboyev#

Hikoyani o‘qitish metodikasi

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo‘lib, unda kishi hayotidagi ma‘lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. „Hikoya ko‘pincha kishi hayotida bo‘lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroq hayotiydir“. Hikoya mazmunan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko‘rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko‘proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni hikoya bilan tanishtirish uning sujetini tushuntirishga bog‘lab olib boriladi. Boshlang‘ich sinflarda hikoyani o‘qishga bag‘ishlangan izohli o‘qish darslarida o‘qilgan hikoya mazmunini ochish, lug‘at ustida ishlash, o‘qilgan matnni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi.²

Mazkur hikoyani o‘rganish 2 soatga mo‘ljallangan bo‘lib, darslikda uch qismga bo‘lib berilgan. Dastlab hikoya o‘quvchilarga o‘qituvchi tomonidan to‘liq holda, ifodali tarzda o‘qib beriladi. Quyida “Telebola“ hikoyasining qisqacha mazmunini keltirilgan.³

Farg‘ona tomonda, Tagob qishlog‘ida Omonboy degan bola yasharkan. U har kuni o‘n soat televizor tomosha qilmasa, ham oyog‘i, ham tomog‘i og‘rib qolarkan. Dars tayyorlayotganda eski televizorining ichidagi ashqol-dashqolini olib tashlab, bo‘shagan qutichasining ichiga kirib olib tayyorlar ekan.

O‘sha kuni dars tayyorlamagani, faqat televizor ko‘rgani sabab maktabga ham bormabdi. Televizordagi qiziq-qiziq tomoshalar o‘tib ketib qoladi deb, onasi buyurib ketgan ishlarni ham qilmabdi. Katta televizor uyda, kichkinasi ayvonda, xontaxaning ustida turar ekan. Omonboy chaqqon bola bo‘lgani uchun goh unisiga, goh bunisiga o‘tib, tomosha ko‘ra boshlabdi. Kun botay-botay deganda Omonboyning boshi aylanib, ko‘zi tinib, qulog‘idan g‘alati-g‘alati ovozlari eshitilarmish, xuddi qulog‘ining ichida pakana-pakana odamlar chiqib kelayotganga o‘xsharmish. Televizor surilib kelib, Omonboyning peshonasiga chippa yopishib qolibdi. O‘rnidan turmoqchi ekan, boshi zil-zamildek og‘ir edi.

U battar qo‘rqib, oyisiga aytibdi. Oyisi qarasa, chindan ham peshonasi shsishib ketgan, peshonasini silasa, qo‘lni kuydiraigan darajada issiq edi. Oyisi ari chaqqan deb o‘yladi. Omonboy kichkina televizorcha miyyasiga kirib qolganini aytdi. Oyisi yugurib chiqib qo‘shnilarga aytdi. Bir qo‘shnisi bolaning hazilkashligini bilib, bunga ishonmasa, biri peshonasida hech narsa yo‘q, sal-pal shishinqirab qolgan, yana birlari ajinalar o‘yin qilyapti, sehrgarlarning ishiga o‘xshaydi, osmondan uchar likopchalarda noma‘lum odamlar tushib, uning miyyasiga ko‘rinmaydigan qilib joylab qo‘ygan, -degan gaplarni aytardi. Vahimali gaplar ko‘paygandan ko‘payaverdi. Bir payt Omonboyning chin do‘sti Davronboy televizorcha sehrimi, sehrli emasmi, sinab ko‘rish kerakligini aytdi. Mahallada

² Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – B. 113.

³ U.B.Aydarova, N.K.Azizova. O‘qish savodxonligi 4-qism: 4-sinf uchun darslik. –Toshkent:“Novda Edutainment”, 2023. – B. 65.

Turg'un aka degan televizor ustasi bor ekan. Sinab ko'rish uchun ana shu amakini chaqirib keladigan bo'lishibdi.

Yuqorida hikoyaning qisqacha mazmunini keltirdik.

Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnни qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi.

Hikoyani o'qish darsida o'quvchilar tushunmaydigan so'z va iboralar ma'nosini tushuntirish ham muhim, aks holda ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar.⁴

Darslikda lug'at ishi uchun hikoyaning 1-qismida berilgan *ashqol-dashqol, chalqancha, javdiramoq* so'zlari tavsiya etilgan.

Ashqol-dashqol – ro'zg'orda yoki biror kasb-korda kerak bo'ladigan narsalar
Chalqancha – orqani yerga berib, osmonga qarab

Javdiramoq – najot izlab, iltijo bilan qaramoq, termilmoq

Ushbu so'zlar izohi bizga hikoya mazmunini to'liq anglashimizga yordam beradi.

Darslikda o'tilgan mavzuni mustahkamlash yuzasidan 1-qism uchun quyidagi ishlar tavsiya etilgan.

I.Mavzu yuzasidan savollar.

1.Hikoya qayerda sodir bo'lgan va u kim haqida?

2.Omonboy nima sababdan televizor qutisining ichiga kirib dars tayyorlaydi?

3.Sarguzasht voqeaga nima sabab bo'ldi?

4.Ayting-chi bu voqea haqiqatdan ham bo'ladi deb hisoblash mumkinmi?

Javobingizni izohlang.

5.Hikoyaning davomini qanday faraz qilish mumkin?

6.Hikoyaning shu qismidan qanday xulosa chiqardingiz?

II.Og'zaki topshiriq.

1.Hikoyani qismlarga bo'lib o'qing.

2.Omonboyga ta'rif bering.

III.Topshiriqni bajaring. Maqollarni davom ettiring va ularni izohlang. Hikoya mazmuniga moslarini yoddan aytishga harakat qiling.

1.Bugungi ishni

2.Olim bo'lsang, ... seniki.

3.Xato qilmoqlik border,

4.Kamtarga kamol,

IV.Uyga vazifa. Hikoyani so'zlab bering.

Darslikda o'tilgan mavzuni mustahkamlash yuzasidan 2-3-qism uchun quyidagi ishlar tavsiya etilgan.

I.Mavzu yuzasidan savollar.

1.Ikkinchi qismda voqea rivoji nimadan boshlandi?

2.Onasi nima uchun bu voqeaga dastlab ishonmadi?

3.Omonboyning ko'ziga nima uchun turli voqealar ko'rinarverdi?

⁴ Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – B. 113.

4.Qo‘shnilar qanday fikrlar bildirishdi?

5.Davronboyning chin do‘st ekanligi hikoyada qanday ko‘rsatilgan?

6.Bu sarguzashtli hikoya qanday yakun topgan deb o‘ylaysiz?

7.Siz bu hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?

II.Og‘zaki topshiriq.

1.Hikoyani rollarga bo‘lib o‘qing.

2.Ikkinchi va uchinchi qismdagi voqealarni bir-biriga taqqoslang hamda farqini ayting.

3.Birinchi qismdagi Omonboy bilan uchinchi qismdagi Omonboyini taqqoslang.

III.Guruh bo‘lib ishleng.

Hikoya qahramonlariga mos sifatlarni aniqlang.

Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Telebola” hikoyasi kulgili, ammo o‘ylantiruvchi asar bo‘lib, unda oddiy bola — Omonboyning sarguzashtlari orqali bolalarning hayol dunyosi, ishonuvchanligi va orzularining beozorligi tasvirlanadi. Asarda Omonboyning televizorga haddan ortiq qiziqishi, hatto televizor qutisiga kirib dars tayyorlashi uning bolalarcha hayolparast, lekin o‘ta qiziquvchan va topqir tabiatini ko‘rsatadi. Shu qiziqishlari sabab bir kuni uning peshonasida “televizorcha” paydo bo‘lgani haqidagi mish-mishlar butun mahallaga tarqaladi.

“Telebola” — bu oddiy bola hayotidagi g‘alati, lekin ibratli voqea haqida yozilgan, kulgili va shu bilan birga ma‘noli hikoya. U o‘quvchini o‘ylashga, kulishga, va bolalarcha orzularni qadrlashga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009.

2. U.B.Aydarova, N.K.Azizova. O‘qish savodxonligi 4-qism: 4-sinf uchun darslik. –Toshkent:”Novda Edutainment”, 2023.

https://uz.wikipedia.org/wiki/Xudoyberdi_To%CA%BBxtaboyev#